

## DANIYA SELEKSIYASIGA MANSUB SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI

Tursunboyev Shoxrux Bobir o'g'li

**Samarqanda davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536376>

**Annotatsiya.** Maqolada turli liniyadagi golshtin zotli sigirlarning onalarini sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari keltirilgan va tahlil qilingan

**Kalit so'zlar.** Sut mahsuldorligi, liniya, o'rtacha, sut miqdor, sut yog' chiqimi, sutdorlik koeffitsienti, 4%-li sut.

**Аннотация.** В статье представлены и проанализированы показатели молочной продуктивности матерей коров голштинской породы разных линий.

**Ключевые слова.** Удой, линия, средний, надои, выход жира в молоке, коэффициент надоя, 4% молоко” о

**Abstract.** The article presents and analyzes the milk productivity indicators of mothers of Holstein cows of different lines.

**Keywords.** milk yield, line, average, milk yield, milk fat yield, milk yield coefficient, 4% milk

**Kirish.** Dunyo aholisining kundalik ehtiyojiga aylangan chorvachilik mahsulotlari-go'sht, go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabi kundan-kunga oshib bormoqda. Shu jihatdan ham ushbu soha rivojlangan Shveysariya, AQSh, Germaniya, va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qoramollarning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, mahsuldorlikni oshirish, mollarning pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilash, olingan buzoqlarni talab darajasida oziqlantirish, asrash, chorvachilik sohasining qoramolchilik tarmog'ini yanada kengaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. xulosalariga qaraganda, sigirlarni to'la qiymatli maqbul oziqlantirish tipini ishlab chiqish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishda yuqori samara beradi.

Hayvonlarning mahsuldor bo'lib shakillanishiga ular yashayotgan sharoit katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda ratsioning to'la qiymatliliigi va oziqlantirish turi, shuningdek saqlash sharoiti muhim kasb etadi. Shuni qayd qilish kerakki, buzoqlarning jadal o'sishiga eng avvalo, oziqlantirish darajasi katta ta'sir ko'rsatar ekan.

**Tadqiqot uslublari.** Sut mahsuldorligi nazorat sog'imi (har 10 kunda), eng yuqori kunlik sut berish darajasini aniqlash, iydish davrdagi sut mahsuldorligi (100 kun), 305 kunlik sut mahsuldorligi (hisoblash yo'li bilan), sutning yogdorlik darajasi, 4% sut mahsuldorligi, sutdorlik koeffitsenti, sutning biokimyoviy tarkibi. Sutning sifat ko'rsatkichlari nazorat sog'imi paytida ertalab, tushlik, kechqurun namuna olish orqali (N.V.Barabanshikov,1986) Sutdorlik koeffitsienti (KM) tajriba guruhidagi qoramollarni D.I.Starsevim (1966), formulasi orqali aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.** Sulton fermer xo'jaligiga olib kelingan turli liniyalariga xos sigirlar quyidagi sut mahsuldorligi bilan tavsiflandi. 1- jadvaldan ko'rinishicha, Oman Justi liniyasidagi sigirlarning sut mahsuldorligi 7627,7 kg tashkil qilib, Ha Manfred liniyasidagi sigirlarninidan 813,2 kg yoki 10,66% ga ( $P>0,95$ ), sigirlarning o'rtacha tirik vazni bo'yicha 72,5 kg yoki 9,97%-ga ( $P>0,999$ ), sut yog' chiqimi 30,3 kg-ga yoki 10,09 %-ga ( $P>0,95$ ), 4%-li sut miqdori 770 kg yoki 10,26% yuqori bo'ldi. Arlinda liniyasiga mansub tengdoshlaridan

sut mahsuldorligi bo'ycha 1208,1 kg-ga yoki 15,83 %-ga ( $P>0,999$ ), o'rtacha tirik vazni bo'ycha 77,8 kg yoki 10,70%-ga ( $P>0,99$ ), sut yog' chiqimi bo'ycha 44,9 kg yoki 14,96 %-ga ( $P>0,99$ ), 4%-li sut miqdori bo'ycha 1123,8 kg-ga yoki 14,97% ga ( $P>0,999$ ) yuqori bo'lgan.

### 1.-jadval

#### Turli liniyalardagi sigirlarning onalarini sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Golshtin zotli Daniya seleksiyasiga mansub liniyalar					
	Oman Justi		Ha Manfred		Arlinda	
	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv,%
Sut miqdori o'rtacha, kg	7627,7±247	12,59	6814,5±269*	15,34	6419,6±253***	15,32
Sut yog'i o'rtacha, %	3,94±0,03	2,98	3,96±0,03	3,0	3,49±0,03	2,63
Sut oqsili o'rtacha, %	3,46±0,02	2,64	3,47±0,02	2,48	3,49±0,02	1,89
Sut yog' chiqimi,kg	300,1±9,71	12,53	269,3±9,60*	13,80	255,2±9,18**	13,94
Sut oqsil chiqimi,kg	264,2±8,76	12,84	236,8±10,11*	16,54	224,1±9,09**	15,70
4%-li sut miqdori o'rtacha, kg	7502,8±242	12,53	6732,8±239*	13,80	6379,0±229***	13,94
Tirik vazni o'rtacha, kg	726,7±17,38	9,26	658,8±28,95***	17,02	636,6±25,99***	15,88
Sutdorlik koeffitsenti, kg	1047,4±13,86	5,12	1067,2±78,48	28,48	1014,3±5,38*	2,05

**Eslatma:**\*( $P>0,95$ ); \*\*\*( $P>0,99$ ); \*\*\*( $P>0,999$ )

**Xulosa.** Sut mahsuldorligi bo'ycha yuqori mahsuldorlikga ega bo'lgan sigirlarni etishtirish nafaqat sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, balki ko'plab mahsuldorligi bo'ycha irsiy imkoniyatlari yuqori yosh nasli mollar etishtirishda ham katta amaliy ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

- Nosirov U., Dosmuxamedova M., G'ulomov M. Sigirlarni bir xil oziqlantirish tipida mahsuldorligini oshirish. J. "Zooveterinariya", №12, 2011, 45-47 b.
- Shokirov Q.J., / O'zbekiston sharoitida golshtin zotli qoramollarning iqlimga moslashishida nasldorlik va mahsuldorlik sifatini takomillashtirish // Chorvachilik va naslchilik ishi. 2022. № 3.5-7 b.
- Shakirov Q.J., Dosmuxamedova M.X. Xitoy golshtin sigirlarni tashqi muhit sharoitiga moslashish xususiyatlari. Toshkent davlat agrar universiteti O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligini oshirishda ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarining rolini oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 22-23 fevral 2018 yil 117-121 b.
- Yuldashev A Golshtin zotli turli laktatsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorligi. // "Agro-ilm" 2019 № 3. 52-53 b